



12-13 YOSHLI FUTBOLCHILARNING O‘YIN JARAYONIDAGI TAKTIK FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

Erdonov I.X.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: jismoniy tarbiya, 12-13 yoshli futbolchilarning o‘yin jarayonidagi taktik fikrlashi, innovatsion jarayonlarni rivojlantirish, jamoaviy sport o‘yinlari.

Ключевые слова: физическое воспитание, тактическое мышление игроков 12-13 лет во время игры, развитие инновационных процессов, командные спортивные игры.

Key words: physical education, tactical thinking of 12-13-year-old players during the game, development of innovative processes, team sports games.

Dolzarliligi. Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish, bu sohadagi muammolarni hal qilish, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini raqobatbardosh kadrlar qilib tayyorlash, ularni bilim va malakalarini takomillashtirib borish asosiy vazifalaridan biridir. Mazkur muammolarni o‘rganish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish sohadagi muammolarning ilmiy yechimini aniqlashda dolzarb hisoblanadi [1,2,3,4].

Albatta, mazkur farmon va qarorlar ijrosini ta‘minlash, qolaversa, amaliyotga joriy etish bugungi kundagi dolzarb masalalardan sanaladi. Xalqaro miqyosida jismoniy tarbiya va sportning o‘rnini baholashda, o‘zaro hamkorlikni yanada mustahkamlashda hamda sohadagi mavjud innovatsion muammolarni ilmiy qonuniyat doirasida tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqori natijali sportning shiddat bilan rivojlanishi sport zaxirasini tayyorlash tizimini mos ravishda rivojlantirish zaruratini shartlaydi, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri sport maktablari va futbol klublaridagi murabbiylar ishining samarasi bilan bog‘lanadi. Futbol mamlakatimizda eng ommaviy sport turi bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolmoqda, biroq bunda-bir qator mutaxassislar o‘tkazgan tadqiqotlarning ma‘lumotlariga ko‘ra-yosh futbolchilarni tayyorlash bilan shug‘ullanadigan bolalar sport muassasalari ishining mahsuldorligi o‘ta past darajada qolmoqda.



Mamlakatmilliy va o‘smirlar terma jamoalarining futbol bo‘yicha yirik xalqaro musobaqalarda keyingi yillarda kuzatilayotgan doimiy muvaffaqiyatsizliklari bu vaqtning tasdig‘i bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Tarkib topgan ahvolding sabablaridan biri shunda ko‘rinadiki, sport fanining zamonaviy yutuqlari murabbiylarning amaliy ishida har doim ham yetarlicha o‘z aksini topavermaydi. Boshqa bir sabab — tayyorgarlikni optimallashtirishda yashiringan, optimallashtirish tizimning o‘zini sifat jihatidan qanchalik o‘zgartirish bilan ta‘minlansa, uning ichki rezervlarini qidirish hisobiga ham shunchalik darajada ta‘minlanishi lozim. Yosh futbolchilarni har tomonlama tayyorlash tizimida o‘quv-mashg‘ulot jarayonining tashkil qilinishini sportchilarning harakatlanish qobiliyati strukturasi, psixik va morfofunktsional holatining, individning texnik-taktik mahorat darajasining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish asosida takomillashtirish shunday rezervlardan biri bo‘lib hisoblanadi [5,6,7,8,9].

Jamoaviy sport o‘yinlari, futbolni ham o‘z ichiga olgan holda, shunisi bilan ajralib turadiki, shug‘ullanish jarayonida bajariladigan yuklamaning asosiy hajmi ixtisoslashtirilgan xarakterga ega bo‘ladi, tayyorgarlikning ustuvor vositalari sifatida esa – texnik-taktik xarakterdagi yoki o‘yin xarakteridagi guruh va jamoaviy mashqlardan foydalaniladi [9,10,11,12], bu mashqlar, o‘z navbatida, bir nechta mumkin bo‘lgan variantlardan eng optimal yechimni tanlashni ko‘zda tutadi. Shunday qilib, o‘yin faoliyatida futbolchi oldida vujudga kelgan har qanday o‘yin vaziyatida eng to‘g‘ri harakatni tanlash muammosi har doim ko‘ndalang turadi.

Futbol amaliyoti va sport psixologiyasi o‘yin paytida qaror qabul qilishni ya‘ni fikrlashga o‘qitishning qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini e‘tirof etadi. A.Vaytersning fikriga ko‘ra, ana shu — futbolchining mahoratidir. Tayyorgarlik paytida uni ishlab chiqishga, masalan, Angliya futbolida, shug‘ullanish mashg‘ulotlari vaqtining 80% i ajratiladi.

Tadqiqot ishining maqsadi: Yosh futbolchilarni musobaqa sharoitidagi o‘yin vaziyatlarini to‘g‘ri fikrlashi texnik-taktik harakatlar samaradorligi ta‘sir ko‘rsatishini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot ishining vazifalari quyidagilardan iborat hisoblanadi:

- 12-13 yoshli yosh futbolchilarning fikrlash qobiliyatini aniqlashning o‘ziga xususiyatlari;

- yosh futbolchilarning taktik fikrlashini baholash uchun qo‘llaniladigan uslublar bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni hal etish quyidagi ilmiy uslublar asosida amalga oshirildi:

- Ilmiy adabiyotlar o‘rganish uslubi;
- Tayyorgarlikni baholovchi test me‘yorlari;
- Pedagogik tajriba;
- Matematik statistika uslubi.

Sport amaliyotida aynan yosh futbolchilarda fikrlash jarayonlari amalga oshishi tezkorligini aniqlash imkonini beruvchi maxsus testlar ishlab chiqilgan bo‘lsa biz psixologik testlardan foydalanishga harakat qildik. Biroq, nafaqat yosh futbolchilarda, balki ma‘lum bir yoshdagi bolalarda ham fikrlash tezkorligini bilvosita baholash imkonini beruvchi umumiy holatdagi psixologik testlar mavjud hisoblanadi.

Yosh futbolchilarga 3 minut davomida tushirib qoldirilgan harflarga ega bo‘lgan 40 ta so‘z berilgan blankani to‘ldirish masalasi taqdim etiladi. Har bir chiziq tortilgan soha bitta qoldirib ketilgan harfni ifodalaydi. So‘zlar otlardan iborat bo‘lishi va birlikda keltirilishi talab qilinadi.



I-rasmda tajriba va nazorat guruhining test bo‘yicha natijalari keltirilgan. A-chizmada tajriba guruhi tomonimizdan javoblarni tahlil qilish natijalari ko‘rsatishicha, test talablarini to‘g‘ri bajarishni tadqiqotdan oldin 12 ta yosh futbolchi (60%) tadqiqotdan so‘ng 7 ta yosh futbolchi (35%) tadqiqotdan so‘ng uddalashgan, ya‘ni ular tomonidan so‘zlardagi (31 tadan 35 tagacha) tushirib qoldirilgan harflar o‘z o‘rniga qo‘yilishi bajarilgan. Sportchilarning bu guruhi tafakkurlashning yuqori darajada ifodalanishi bilan tavsiflanadi va ularda asab jarayonlari (AJ) harakatchanligi yuqori darajada kuzatiladi.

Tadqiqotdan so‘ng 7 ta (35%) va tadqiqotdan oldin 8 ta (35%) yosh futbolchilarda tafakkurlash va asab jarayonlari harakatchanligining o‘rtacha darajasi qayd qilingan (21 tadan 26 tagacha so‘zlar to‘g‘ri belgilangan).

Tadqiqotdan so‘ng 1 ta (5%) va tadqiqotdan oldin 25 ta (35%) futbolchida tafakkurlash va asab jarayonlari harakatchanligining past darajasi qayd qilingan (ya‘ni, ular tomonidan 15 tadan 19 tagacha so‘zlardagi tushirib qoldirilgan harflar to‘g‘ri belgilangan).

B-chizmada nazorat guruhi tomonimizdan javoblar tahlili ko‘rsatishicha, test talablarini to‘g‘ri bajarishni tadqiqotdan oldin 7 ta yosh futbolchi (35%) tadqiqotdan so‘ng 9 ta yosh futbolchi (45%) tadqiqotdan so‘ng uddalashgan, ya‘ni ular tomonidan so‘zlardagi (31 tadan 35 tagacha) tushirib qoldirilgan harflar o‘z o‘rniga qo‘yilishi bajarilgan.

Tadqiqotdan so‘ng 6 ta (30%) va tadqiqotdan oldin 10 ta (50%) yosh futbolchilarda tafakkurlash va asab jarayonlari harakatchanligining o‘rtacha darajasi qayd qilingan (21 tadan 26 tagacha so‘zlar to‘g‘ri belgilangan).





I-rasmda tajriba va nazorat guruhining 3 daqiqa davomida natijalar: A-tajriba guruhi; B-nazorat guruhi.

Tadqiqotdan so'ng 5 ta (25%) va tadqiqotdan oldin 3 ta (15%) futbolchida tafakkurlash va asab jarayonlari harakatchanligining past darajasi qayd qilingan (ya'ni, ular tomonidan 15 tadan 19 tagacha so'zlardagi tushirib qoldirilgan harflar to'g'ri belgilangan).

Tajriba va nazorat u natijalariga e'tibor beradigan bo'lsak, tajriba guruhining natijalari ijobiy tomonga o'zgariganligini, nazorat guruhining futbolchilari esa, o'zgarish kuzatilmadi.

Ma'lumki, tafakkurlash odamning butun hayoti davomida, uning hayot faoliyati jarayonida rivojlanadi. Har bir yosh bosqichida tafakkurlash o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi qayd qilinadi. Erta yosh davrida bolalarda fikrlash aniq masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan harakatlar shaklida: ya'ni, ko'rish maydonida joylashgan qandaydir predmetlarni olish, o'yinchoq piramidaga halqani kiydirish, qutichani ochish yoki yopish, yashirilgan narsalarni qidirib topish, stulni aylanib yurish, o'yinchoqni olib kelish va hokazo ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Nutqni egallash orqali atrofdagi odamlar tomonidan bolalarda ko'rgazmali – amaliy fikrlash rivojlantirilishi amalga oshiriladi. Til orqali bolalar umumiy tarzda fikrlay boshlashadi. Fikrlashning navbatdagi rivojlanishi harakatlar, timsollar va so'zlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar o'zgarishlarida o'z ifodasini topadi.



2-rasmda tajriba va nazorat guruhining 1.5 daqiqa davomida natijalar: A-tajriba guruhi; B-nazorat guruhi.

Biroq, tafakkurlashning gap bilan o‘zaro chambarchas bog‘liqligi – bu butunlay fikrlashning gaplarga bog‘liqligidan dalolat bermaydi. Tafakkurlash va gaplar aynan bir xil tushunchalar emas. Fikrlash, bu demak o‘zi haqida gapirib berishni anglatmaydi. Bu holat bir xil fikrlarning turli xil so‘zlar vositasida ifodalanishi mumkinligi asosida tasdiqlanadi, shuningdek biz har doim xam o‘z fikrlarimizni to‘g‘ri ifoda olish uchun kerakli so‘zlarni topishga harakat qilamiz.

Diqqat – e’tiborning taqsimlanishi va bir narsadan boshqasiga qaratilishi hajmini baholash uchun “Raqamli kvadrat” testidan foydalanildi. Bunda futbolchilarga 1,5 minut vaqt davomida kvadrat sohada mavjud bo‘lmagan raqamni qayd qilish topshirig‘i taqdim etildi.

Sinovlarda qatnashgan 20 ta yosh futbolchilar ikkinchi testda 9 balli shkalada baholandi buning natijalari 2-chizmada keltirilgan chizmaga e’tibor beradigan bo‘lsak, A-tajriba va B-nazorat guruhining ko‘rsatkichlari aniq ko‘rsatilgan. A-chizmadagi natijalarda tajriba guruhining shug‘ullanuvchilari keltirilgan tajribadan oldin 9 ball javob kuzatilmadi. 8 ball-1 ta, 7 ball-2ta, 6 ball-2 ta, 5 ball-4ta, 4 ball-3 ta, 3 ball-4 ta, 2 ball-3 ta, 1 ball-1ta javoblarni to‘g‘ri berishgan. Tadqiqotdan so‘ng natijalar ijobiy tomonga o‘zgaragan. Ya’ni 9 ball-1, 8 ball-2 ta, 7 ball-3 ta, 6 ball-3 ta, 5 ball-5ta, 4 ball-3 ta, 3 ball-2 ta, 2 ball-1 ta kuzatilsa 1 ball-0 ta to‘g‘ri javob berilmagan. B-nazorat guruhining



natijalari o'zgartmagan. Bu sportchilarda diqqat – e'tiborning taqsimlanishi va bir holatdan ikkinchi holatga o'tish hajmining past darajada ekanligi qayd qilindi.

Ushbu guruh tarkibida mantiqiy jihatdan tafakkurlash bo'yicha katta qiymatdagi o'zaro farqlanishlar kuzatilishi bu holatda jamoadagi ma'lum bir aniq mas'uliyatga ega bo'lish bilan bog'liq holatda ularda intellektual sifatlarning maxsus tarzda rivojlantirilishi hali to'liq amalga oshirilmasligidan dalolat beradi. Shu bilan bir vaqtda, o'z – o'zidan futbol bilan shug'ullanish fakti yosh futbolchilarda tafakkurlashning shakllaridan biri sifatida diqqat – e'tiborning bir holatdan ikkinchisiga jalb qilinishi tezkorligi intensivligi ortishiga olib keladi. Bu holat esa – demak, ular harakatlar motorikasi ko'rsatkichlari bo'yicha maksimal tempda o'z tengdoshlaridan ilgari ketishi mumkinligini ko'rsatib beradi. Bunda motorika sifatlariga yoshga oid va shuningdek, sportga oid omillar bir xilda o'z ta'sirini ko'rsatadi.

O'rganilgan guruhlarda yakka tartibdagi sportchilar o'rtasidagi tafakkurlash tezkorligini tahlil qilishda o'zaro farqlanishlar mavjudligi qayd qilindi. Ma'lumki, tafakkurlash tezligi genetik jihatdan belgilangan bo'lib, ko'p jihatdan shaxsning neyrodinamik xususiyatlari bilan aniqlanadi. Ushbu psixik funksiyaga futbol mashg'ulotlarining ta'siri nisbatan kechroq yosh davrlarida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlanganki, 12-13 yoshli futbolchilarga operativ fikrlash tezkorligining o'rtacha darajasi xos bo'ladi, biroq bunda uni baholaydigan testlarning ko'rsatkichlari bilan o'yin faoliyatining samaradorligi o'rtasida ishonchli o'zaro bog'lanishlar topildi.

O'yin faoliyatining samaradorligini ta'minlaydigan shartlardan biri sportchilarning o'yinda vujudga kelgan vaziyatni klassifikatsiyalay olish qobiliyati bo'lib hisoblanadi. Buning uchun 12-13 yoshli yosh futbolchilarning nazariy-taktik tayyorgarligining mazmunini taktik masalalarni yechishga qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi; bunda taktik tayyorgarlik bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda nazariy siklda ko'rib chiqilgan vaziyatlar vujudga keladigan mashqlar bajarilishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Акимова М.К., Козлова В.Т., Ференс Н.А. Теоретические подходы к диагностике практического мышления // Вопросы психологии. – 1999. – №1. – С.21.
2. Акромов Р., Толибжонов А., Юқори малакали футболчиларни тайёрлаш. –Т., 1994.-130б.
3. Андреев Н. Особенности оборонительных действий в мини-футболе: Методические рекомендации. — М., 1997. — 31 с.
4. Варюшин В. Тренировка юных футболистов. М., 2007. – 112 с.



5. Волков Б.С. Психология младшего школьника. – М.: Педагогическое общество России, 2002. – 128 с.
6. Выгодский Л.С. Психология искусства. – М: Лабиринт – 2008. – с.3524.
7. Гаджиев Г. Игра изо всех сил. Футбол. 1998. № 13. с. 6-9.
8. Герасименко А.П. Совершенствование основ технико-тактического мастерства юных футболистов. — Волгоград, ВГАФК, 2002. 200с
9. Глуханюк Н.С., Семенова С.Л., Печеркина А.А. Общая психология: Учебное пособие для вузов. М.: Академический проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2005. 368 с.
10. Голомазов С., Чирва Б. Футбол. Становление технического мастерства: Методические разработки для слушателей ВШТ. Выпуск 9. – М., РГАФК, 1999. – 87 с.
11. Голомазов С., Чирва Б. Футбол: Тренировка точности юных спортсменов. –М., 1994. –81 с.
12. Джанузаков К.Ч. Индивидуализация учебно-тренировочного процесса юных футболистов 16-17 лет на основе педагогического контроля. Автореф. дис. .. канд. пед. наук. –М., 1982. –23 с.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada 12-13 yoshli futbolchilarning o'yin jarayonidagi taktik fikrlashini rivojlantirish haqida so'z boradi. Shuningdek, maqola davomida jarayonidagi taktik fikrlashini rivojlantirish usullari va ularning samaradorligiga alohida to'xtalib o'tilgan. Maqola so'nggida asosli xulosa va takliflar keltirib o'tilgan bo'lib, maqola mohiyati ilmiy asoslangan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о развитии тактического мышления игроков 12-13 лет в ходе игры. Также в ходе статьи особое внимание было уделено методам развития тактического мышления и их эффективности. В конце статьи даны обоснованные выводы и предложения, а суть статьи научно обоснована.

SUMMARY

This article talks about the development of tactical thinking of 12-13-year-old players during the game. Also, during the article, special attention was paid to the methods of developing tactical thinking and their effectiveness. At the end of the article, reasonable conclusions and suggestions are given, and the essence of the article is scientifically based.